IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

O‘ZBEKISTONNING DUNYO HAMJAMIYATI BILAN SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARINING O‘RNATILISHI

Tursunxo‘jayeva Maxfuzaxon

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti pedagogika yo‘nalishi

1-kurs 102-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar, O‘zbekiston va xalqaro davlatlar bilan olib borilyotgan siyosiy-iqtisodiy aloqalar, O‘zbekistonning kelajakdagi istiqbolli xalqaro siyosati ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Konstitutsiya, pirinsip, subyekt, xalqaro, intensiv, paket, suveren norma, ekstremik, diplomatik.

Annotation: Article Sh.The reforms carried out by Mirziyoyev, political and economic relations with Uzbekistan and international countries, future promising international policy of Uzbekistan are outlined.

Keywords: Constitution, pirinsip, subject, International, intensive, package, sovereign norm, extreme, diplomatic.

Аннотация: В Статье Ш.Мирзиеев отметил проводимые реформы, политико-экономические связи с Узбекистаном и международными государствами, перспективную международную политику Узбекистана.

Ключевые слова: Конституция, проницательность, предмет, международный, интенсивный, пакет, суверенная норма, экстремальный, дипломатический.

Kirish:

O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo’lga kiritgandan so’ng faol tashqi siyosat olib bormoqda . Tashqi siyosat prinsiplari va konstitutsiyamizning 17- moddasida aks etadi. Ushbu moddaga asosan: “O’zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to’la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik , chegaralarning daxlsizligi ,nizolarni tinch yo’l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi“[1] Avvalo O’zbekiston o’zining chegaradosh hamda qardosh bo’lgan hududlar xususan, Qozog’iston, Qirg’ig’iston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg’oniston bilan do’stona aloqalarni yo’lga qo’ygan. Ushbu davlatlar bilan o’xshash jihatlarimiz juda ko’p .Ya’ni tariximiz , madaniyatimiz , tilimiz va dinimizning bir-biriga yaqinligida aks etadi .

Material va Metodlar:

Maqolada qiyosiy tahlil usulidan foydalangan holda O’zbekiston dunyo mamlakatlari bilan aloqalarning o’rnatilishi, rivojlanishi va shu sohada amalga oshirilyotgan islohotlar tahlil qilingan. Bugungi kunda O’zbekiston boshqa davlatlar nigohida bo’lib turishi, barcha sohalarda aloqalarning mustahkamlanib borishi borasidagi islohatlarni etirof etish maqsadga muvofiqdir.

[1] O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent:. 2018

Natija va Mulohazalar:

Tarixga yuzlansak ushbu davlatlar Movaraunaxr deb ataluvchi geografik hududda vujudga kelgan . Shundan bo'lsa kerak savdo elchilik , tashqi siyosat masalalari qadimdan kurtak yoza boshlagan. Jumladan, Qozog'iston bilan 1992-yil iyun oyida Islom Karimov rasmiy davlat tashrifi bilan do'stona munasabatlar yo'lga qo'yilgan. 1998-yil oktabrda ikki davlat o'rtasida abadiy do'stlik shartnomasi imzolandi. 2017-yil sentabrda Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev O'zbekistonga tashrif buyurdi ikki davlat o'rtasida shartnomalar imzolandi.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich Qozog'iston prezidenti Nursulton Nazarboyevni "El yurt hurmati" ordeni bilan taqdirladi.Qozog'istonda bugungi kunda 550 ming o'zbek istiqomat qiladi. 2017- yil Qirg'iziston prezidentining O'zbekistonga tashrifi mobaynida 2018-yil Qozog'istonda O'zbekiston yili, 2019-yilda esa O'zbekistonda Qozog'iston yili o'tkazilishi belgilandi . Qirg'izistonning birinchi prezidenti Askar Akayevning 1992-yil O'zbekistonga tashrifi do'stligimizga turtki bo'ldi.Do'stligimiz mustahkamlanishida 2010-yil iyuldagi Qirg'iztonda ro'y bergan ekstremistik kuchlar tomonidan uyshtirilgan millatlararo qonli voqealar sabab bo'ldi. Ushbu voqealar sharoitida O'zbekistondan 100 mingdan ortiq qochqinlarni o'z hududiga qabul qildi.2017-yil Shavkat Mirziyoyev Bishkek shahrida bo'ldi . Ikki davlat rahbarlari 7 yil mobaynida yopib qo'yilgan chegara postlarini ochish haqida kelishib olishdi . Uzoq vaqt davomida yopiq turgan chegaralarning ochilishi ikki davlat fuqorolarini birdek quvontirdi. 2017-yil O'zbekiston Tojikiston munosabatlarida ham yangi sahifa ochilldi. 2017-yil aprelda 25 yilgi tanafusdan so'ng Dushanbe Toshkent o'rtasidagi aviaqatnov yana tiklandi. 2017-yil 6-7-mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. Bu prezidentning rahbar sifatida xorij mamlakatiga qilgan ilk rasmiy tashrifi hisoblanadi.O'zbekiston hududida turkman millatiga mansub qariyib 170 ming aholi yashab kelayotgan bo'lsa 44 ta maktabda ta'lim turkman tilida olib borilmoqda . Xalqaro aloqalar bo'limi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 4119-sonli qarori asosida 2019-yil 16-yanvarda tashkil etilgan bo'lib u o'z faoliyati davomida xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan demokratik aloqalarni o'zgartirish borasida qator ishlarni amalga oshirdi. Jumladan Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, Finlandiya, Angliya, AQSH, Polsha, Fransiya kabi 20 dan ortiq xorijiy davlatlarning elchixonalaridan hamkorlik qilish bo'yicha takliflar olindi 40 dan ortiq rasmiy uchrashuvlar o'tkazildi. Shuningdek AQSH, Rossiya, Fransiya, Malayziya, Qozog'iston kabi davlatlarga 15 dan ortiq rasmiy tashriflar tashkil etildi. Jumladan ta'lim sohasida Rossiya Federatsiyasi va Belorussiya bilan ta'lim hujjatlarini malakviy va ilmiy darajlarni olish bo'yicha hukumatlararo bitim imzolandi. Bugungi kungacha O'zbekiston Rossiya o'rtasida 160 dan ortiq xalqaro shartnoma va 40 dan ziyod boshqa hujjatlar imzolandi.2017-yil aprel oyida O'zbekiston Rossiya o'rtasida 16 milliard dollor bo'lgan 55ta hujjat imzolandi. O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida mahsulotlar eksporti va importi keng yo'lga qo'yilga bo'lib, u qadimdan hozirgi kungacha rivojlanib kelmoqda. 1992-yil fevralda AQSH davlat kotibi O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida dipomatik aloqalar o'rnatildi. 1992-yil martda Toshkentda birinchi AQSHning elchixonasi ochildi. Islom Karimov AQSHni sinovli damlarda qo'llab-quvvatlagani uchun 2002-yil Amerika jamoatchiligi tomonidan "Xalqaro miqiyosidagi lider" mukofoti bilan taqdirlandi. O'zbekiston-Xitoy munosabatlari 2013-yildagistrategik hamkorlikni rivojlantirish haqidagi qo'shma deklaratsiyada hamda 2016-yilgi xalqaro

avtomobil transport yo'li to'g'risidagi siyosiy bitimlarda o'z aksini topdi . Xitoy davlati ta'lim va tarbiya berishda, fanlarni o'qitishda ko'p davlatlarga o'rnak bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ko'pgina davlatlar qatori O'zbekiston ham ta'limda Xitoy tajribasidan foydalanib kelmoqda. O'tgan 5-yil davomida O'zbekiston-Fransiya munosabatlarida barcha sohalarda faol ochiq ishonchli muloqot kuzatilmoqda. 2018-yil oktabr oyida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan O'zbekiston rahbari rasmiy tashrif bilan bordi. O'zbekiston rahbari tashrif buyurgan yevropadagi birinchi davlat bu-Fransiya. Natijada 3,4 mlrd yevrolik 11ta bitim hamda invistitsiyaviy va savdo shartnomasi paketi imzolandi. Umuman olganda ikki davlat o'rtasida 50 yaqin turli harakterdagi hujjatlar imzolangan. Joriy yilning yanvar oktabr oylarida ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 7,6 %ga O'zbekistonning Fransiyaga eksporti 8 baravaga oshdi. Yevropa Kengashi Prezidenti Ekorl Mishelning Biz O'zbekistonning Markaziy Osiyoda barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlashdagi ro'lini yuqori baholaymiz. O'zaro bog'liqligini muhim deb hisoblaymiz va kelgusida muntazam ravishda uchrashib "yashil" iqtisodiyot va barqarorlikni rivojlantirishga qarata aytgan fikrlari Yevropa ittifoqining ham O'zbekiston bilan aloqalarini mustahkamlashga intilayotgan islohotlar tufayli izchil o'rganib borayotganini ko'rib turibmiz. 2017-yil mobaynida O'zbekiston Prezizenti SHavkat Mirziyoyev xalqaro hamkorlik doirasida 21 ta oliy darajadagi tashrif , 60 ta davlat va xalqaro tashkilotlar bilan uchrashuv, 400 dan ortiq kelishuv va 60 mlrd AQSH dollarlik kelishuvlarga erishdi. Bu esa O'zbekistonni mavqeyini yana bir karra oshirdi. Xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishimiz respublikamizga nisbatan siyosiy hurmatni oshishini ta'minladi. Xususan,1992- yil 2-mart kuni O'zbekiston BMT ga qabul qilindi. Shu kungacha BMT shafeligida ko'p tadbirlar amalga oshirildi .Orol dengiziga ko'pchilikni e'tibori jalb qilindi va xalqaro jamg'arma OQXJ tashkil etildi . 1993- yil 29-oktabrda O'zbekiston YuNEKO tashkilotiga a'zo bo'ldi. Tashkilot qadimiy obidalarni asrash , qolaversa kelajak avlodga yetkazishni oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bugungi kunda YuNESKO ning jahon madaniyati ro'yxatiga O'zbekistondan 411 ta obyekt kiritilgan.[2] Allomalarimizning yubileylari ham dunyo miqiyosida keng nishonlanmoqda. Buxoro , Samarqand , Xorazm kabi turistik shaxarlarimizga sayyohlar tashrifi keskin ko'paygan. Ularning sharq xalqlari madaniyati ayniqsa O'zbekistondagi chiroyli qadamjolar ularni qiziqtirishi shubhasizdir. Davlatimizning bugungi kunda turizm sohasiga berayotgan e'tibori va e'tirofi taqsinga sazovordir . Bundan tashqari 2001-yil O'zbekiston ShHT ning to'la huquqli a'zosi bo'ldi. 2017-yilning iyun oyida Ostonadagi sammitda SHavkat Mirziyoyev Afg'onistondagi vaziyatni yaxshilash turli yot g'oyalardan yoshlarni asrash kabi bir qator masalalar to'g'risida nutq so'zladi. O'zbekiston dunyoning ko'pgina davlatlari bilan do'stona aloqalarni yo'lga qo'yishi uning jahon hamjamiyati oldida obro'sini oshirdi. Shartnomalarning ko'pgina qismi ta'lim sohasiga qaratilgan bo'lib O'zbekistonda yetuk kadrlarni tayyorlash qolaversa, rahbar kadrlarni saviyasini oshirish o'zbek yoshlarini dunyoning manaman degan kadirlari bilan sog'lom raqobatga tayyorlashga zamin yaratmoqda. Xususan yurtboshimizning 2023- yil 16-18-yanvar kunlari Singapur davlatiga tashrifi ta'lim sohasi uchun muhim qadam bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi .Tashrif mobaynida prezidentimizning Singapur milliy unversiteti huzuridagi Li Kuan Yu nomidagi davtat siyosati maktabiga tashrif buyurdi. Ko'p tomonlama shartnomalar imzolandi va O'zbekiston davlat boshqaruvi akademiyasi negizida Singapurning yetakchi ekespertlarini jalb qilgan holda

[2]Darslik O'zbekiston tarixi Toshkent 2018

davlat hizmatchilarini intensiv qayta tayyorlash dasturi ishga tushirildi . Li Kuan Yu Singapur davlatining birinchi bosh vaziri hamda “iqtisodiy mo’jiza” asoschisi. U ko’pgina davlat boshqaruviga doir o’zgarishlarni amalga oshirgan mohir siyosatchi. U shunday deydi: “Mamlakatga faqatgina uning maydoniga qarab buyuk deb ta’rif berish-xato. Davlatni uning ulkan orzulari, halol yo’lboshchilari hamda mehnatkash xalqi buyuk qiladi”.[3] Shuning uchun Singapur davlati qisqa davr mobaynida misli ko’rinmagan taraqqiyotga erishdi. O’zbekiston ham dunyoning rivojlangan davlatlari qatorida turish uchun islohotlar olib bormoqda. Xorijiy tajribalaridan unumli foydalangan holda uchinchi renesansni yaratish o’z qo’limizda.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, bu maqoladan ko’zlangan maqsad O’zbekiston o’zining ko’p yillik tashqi siyosati mobaynida ko’pgina yutuqlarga erishganligi qolaversa, o’ziga qo’shni bo’lgan hududlar bilan do’stona munosabat, savdo-elchilik, harbiy va strategik a’loqalarni yo’lga qo’yganligi haqida so’z boradi. O’zbekiston dengizga chiqolmaydigan 34 ta davlatdan biri hisoblansada tarixan qisqa davr ichida ko’pgina davlatlardan ilgarilab ketishi, tashqi siyosat masalalarida aniq va dadil harakat qilishi taqsinga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati :

1.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2018
2.11-sinf O’zbekiston tarixi Toshkent 2018
3.Li Kuan Yuning “Iste’dodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir “ nomli kitob

[3] Li Kuan Yu “Iste’dodli insonlar mamlakatning bebeho boyligidir” nomli kitobi